


SIRDARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

Sirdaryo viloyatining sanoat ishlab chiqarishi 2024- yil yanvar-avgust oylari




**Tel.: 67-236-70-00
www.sirstat.uz**

Sirdaryo viloyati sanoatining asosiy ko'rsatkichlari

Sanoat bu – xom-ashyoni qayta ishlash, yer osti boyliklarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish vositalari va xalq iste'moli mollarini yaratishni qamrab oluvchi ishlab chiqarish tarmog'i.


Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2024- yilning yanvar-avgust oylarida viloyat korxonalari tomonidan 11935,6 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2023- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi 106,4 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.




Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish, hududlar kesimida

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Shirin shahrida (276016,2 ming so'm), o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (13001,1 ming so'm) sezilarli darajada yuqoriligini ko'rsatmoqda.




Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqarish sanoat hissasiga to'g'ri kelib, 6091,0 mlrd. so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 51,0 % ni tashkil etdi.



2024- yilning yanvar-avgust oylarida viloyatda jami sanoat ishlab chiqarishidagi yuqori ulush Shirin shahri (44,4 %), Sirdaryo tumani (19,7 %), Boyovut tumani (7,6 %), Guliston shahri (7,2 %) hamda Yangiyer shahri (6,9 %) hissasiga tog'ri keldi.


Shuningdek, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan yuqori FHI, Boyovut tumanida (113,8 %), Sayxunobod tumanida (109,3 %) hamda Yangiyer shahrida (108,3 %) kuzatildi.



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash – tabiatda qattiq jinslar shaklida uchraydigan (ko'mir, ruda), suyuq holatda uchraydigan (neft) yoki gazsimon holatda uchraydigan (tabiiy gaz) foydali qazilmalarni qazib olishni o'z ichiga oladi.



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati korxonalari tomonidan 2024-yilning yanvar-avgust oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 52,2 mlrd. so'm yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi 0,4 % ga to'g'ri keldi.




Ishlab chiqaradigan sanoat

Ishlab chiqaradigan sanoat bu – tarmoq yangi mahsulot chiqarish maqsadida modda yoki komponentlarni, materiallarni, garchi ishlab chiqarishning ma'lum turi uchun birdan-bir to'liq me'zon hisoblanmasa ham, fizik yoki kimyoviy qayta ishlashni o'z ichiga oladi.


2024- yilning yanvar-avgust oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 6091,0 mlrd. so'mni yoki jami sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi 51,0 % ni tashkil etdi.



Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*)



O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 5,6 % ni (2023- yilning yanvar-avgust oylarida – 5,0 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 4,1 % (3,0 %), o'rta-quyi texnologiyali – 27,7 % (21,2 %), quyi texnologiyali 62,6 % (70,8 %) ni tashkil etgan.




Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va asbob-uskunalar ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, avtotransport vositalari, treylerlar, yarim tirkamalar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi – 1,8 % (2023- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 82,7 m), asosiy farmatsevtik mahsulotlari ishlab chiqarish sohasining ulushi- 5,6 % (2023- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 95,8 %) hamda boshqa nometal mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 8,5 % (2023- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 107,9 %) ga to'g'ri keldi.

* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*)

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 31,9 % (2023- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 110,2 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 9,3 % (2023- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 124,9 %) ni tashkil etdi.



Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

2024- yilning yanvar-avgust oylarida viloyatda 11,8 ming tonna paxta tolasi (2023- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan 32,4 % ga kamaygan), 10,0 ming tonna kalava ip (36,0 % ga kamaygan), 9,5 ming tonna kepak mahsulotlari (10,3 % ga kamaygan) hamda 22,6 ming tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (13,9 % ga kamaygan) ishlab chiqarilgan.


Sanoat mahsulotlari	2023- yil yanvar-avgust	2024- yil yanvar-avgust	Farqi +/-
Yirik shoxli qoramollar uchun ozuqa, tonna	2302,0	480,0	-1822
Paxta, bint va shu kabi mahsulotlar, tonna	1064,8	1018,8	-46
Boshqa plastmassalardan qoplar va sumkalar, ming t.	13,1	15,5	2,4
Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming t.	26,3	22,6	- 3,7
Paxta tolasi, ming t.	17,4	11,8	-5,6

* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

Metallurgiya sanoati

Metallurgiya sanoati – cho‘yan ishlab chiqarish va qora va rangli metallarni qayta ishlash, jumladan, quyma cho‘yan va toza metallarga kimyoviy elementlar qo‘shgan holda superqotishmalar ishlab chiqarishni o‘z ichiga oladi.


2024- yilning yanvar-avgust oylari yakunlariga ko‘ra, metallurgiya sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 2,7 % bo‘lib, ishlab chiqarish hajmi 165,4 mlrd. so‘mni tashkil etdi.



Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish

Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish – minerallar asosida mahsulotlar ishlab chiqarishga tegishli bo‘lgan ishlab chiqarish turlarini o‘z ichiga olib, shisha va shishadan mahsulotlar, keramik buyumlar, polga o‘rnatiladigan qoplamalar, kafel, cherepitsa, terrakota buyumlar, sement va xomashyodan tayyor mahsulotgacha ishlab chiqarishni o‘z ichiga oladi.


2024- yilning yanvar-avgust oylari yakunlariga ko‘ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 8,5 % ni tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 107,9 % tashkil qilib, shundan ishlab chiqarish hajmi 518,5 mlrd. so‘mga to‘g‘ri keladi.



Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish – yeyiladigan qishloq xo‘jaligi, o‘rmon va baliqchilik (oziq-ovqat) mahsulotlarini, spirtsiz ichimliklarni, mineral suvlarni va boshqa idishdagi suvlarni o‘z ichiga oladi.


2024- yilning yanvar-avgust oylari yakunlariga ko‘ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 30,7 % ni tashkil etib, o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 6,6 % ga ko‘paydi va ishlab chiqarish hajmi 1872,3 mlrd. so‘mga to‘g‘ri keldi.



Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

Ichimliklar ishlab chiqarish – spirtsiz ichimliklar va mineral suvlarni ishlab chiqarishni, spirtli ichimliklarni ishlab chiqarishni, asosan fermentatsiya metodi orqali; pivo va vino, shuningdek, distillangan alkogol ichimliklar ishlab chiqarishni o‘z ichiga oladi.


2024- yilning yanvar-avgust oylari yakunlariga ko‘ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 1,2 % bo‘lib, o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 3,7 m ni tashkil etdi va ishlab chiqarish hajmi 73,0 mlrd. so‘mga to‘g‘ri keldi.



To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish – to'qimachilik tolasini tayyorlash va yigirish, shuningdek, to'qimachilik gazlamalarini va tayyor to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish, to'qimachilik mahsulotlariga va kiyimlarga bezak berish, kiyimlardan tashqari tayyor to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.


2024- yilning yanvar-avgust oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 18,4 % ni tashkil etgan, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 27,1 % ga kamayib, ishlab chiqarish hajmi 1093,9 mlrd. so'mga to'g'ri keldi.



Kiyim ishlab chiqarish

Kiyim ishlab chiqarish – barcha materiallardan (masalan, teri, to'qimachilik gazlamalari, to'qilgan va trikotaj gazlamalari va h.k.) barcha tikish mahsulotlarini (tayyor yoki alohida buyurtma bo'yicha qilingan), kiyimlarning barcha turlari (masalan, ustki kiyim, erkaklar, ayollar va bolalar uchun ichki kiyimlar, ish, ofis, kundalik yoki sport kiyimlari va h.k.) va aksessuarlarni ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.


2024- yilning yanvar-avgust oylarida kiyim ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 3,7 % bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 97,9 % ni tashkil etdi va ishlab chiqarish hajmi 228,4 mlrd. so'mga to'g'ri keldi.



Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish – kimyoviy jarayonlar yordamida organik va noorganik xomashyo, materiallarni qayta ishlashni va tayyor mahsulot ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.


2024- yilning yanvar-avgust oylari yakunlariga ko'ra, kimyo mahsulotlari ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 0,4 % ni, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 76,2 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 23,4 mlrd. so'mni tashkil etgan.



Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish

Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish – rezina va plastikdan mahsulot ishlab chiqarishni, ishlab chiqarishda foydalanadigan xomashyo materiallarini o'z ichiga oladi. Lekin bu bo'limga ishlab chiqarishning barcha turlari va materiallari kiradi degani emas.


2024- yilning yanvar-avgust oylari yakunlariga ko'ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 9,0 % ni, fizik hajm indeksi 136,8 % ni tashkil qildi hamda ishlab chiqarish hajmida 545,5 mlrd. so'm kuzatildi.



Mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish

Mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish – “toza metallardan aralashmasiz” buyumlar ishlab chiqarish (ehtiyot qismlari, konteynerlar va moslamalar), odatda statsionar, faqat elektr, elektron yoki optik asboblarga uchun radiopriborlar, uzatish moslamalari kabi, ko'rsatilgan metallar (ba'zida boshqa metallar bilan) va ancha murakkab birikmalar qotishmalarini ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.


2024- yilning yanvar-avgust oylari yakunlariga ko'ra, mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 3,3 % ni, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 17,6 % ga ko'payib ishlab chiqarish hajmi 200,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish

Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish – yo'lovchilar yoki yuklarni tashish uchun avtotransport vositalari ishlab chiqarishni o'z ichiga olib, turli butlovchi qismlar va aksessuarlar, shuningdek, treyler va yarim tirkamalarni ishlab chiqarishni ham o'z ichiga oladi.



2024- yilning yanvar-avgust oylari yakunlariga ko'ra, avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 1,8 % ni, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 826,9 m ga ko'payib ishlab chiqarish hajmi 110,9 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Elektr, gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash – elektr energiyasini, tabiiy gazni, bug'ni, issiq suvni va shu kabilarni doimiy tarmoqlar – kabellar, quvurlar, suv quvurlari orqali yetkazib berish bilan bog'liq faoliyatni o'z ichiga oladi.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 5720,7 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 121,1 % ni) tashkil etgan.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2024- yilning yanvar-avgust oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan elektrenergiya ishlab chiqarish 122,3 % ni, issiqlik energiyasi ishlab chiqarish esa 76,1 % ni tashkil etdi.

Sanoat mahsulotlari	2023- yil yanvar-avgust	2024- yil yanvar-avgust	Farqi +/-
Elektrenergiya, mln.kVt.s	11316,7	8816,7	-2500

Issiqlik energiyasi, ming gkal	95,9	143,9	48,0
--------------------------------	------	-------	------

(O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*)





* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish – qattiq va suyuq, sanoat va maishiy, shuningdek, zaharlangan chiqindilarning barcha turlariga ishlov berish (yig'ish, qayta ishlash va yo'qotish)ni o'z ichiga oladi.


Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 71,7 mlrd. so'mga (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,6 % ga) to'g'ri keldi.

yanvar-avgust
mlrd. so'mda



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi,
chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishning
jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi

yanvar-avgust
FHI, % da




Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

O'tgan yilning mos davriga nisbatan chiqindilarni yig'ish, ishlov berish, yo'qotish, utilizatsiya qilish bo'yicha xizmatlarda 3,3 % ga ko'paydi. Shuningdek, suvni yig'ish, qayta ishlash va taqsimlash bo'yicha xizmatlarda 23,7 % ga ko'payish kuzatildi.

Sanoat mahsulotlari	2023- yil yanvar-avgust	2024- yil yanvar-avgust	Farqi +/-
Chiqindilarni yig'ish, ishlov berish, yo'qotish, utilizatsiya qilish bo'yicha xizmatlar mlrd. so'm	10,0	14,2	4,2

Suvni yig'ish, qayta ishlash va taqsimlash bo'yicha xizmatlar mln. so'm	30,1	57,5	27,4
---	------	------	------

(o'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*)



* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra